Yulduz Xalilova Nasriddinovna	
KOLBASA VA GO'SHT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISHDA CHIQUINDISIZ ISHLAB CHIQUARISH ("ZERO WASTE") MODELINING ROLI: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI AMALIY YO'NALISHLAR.....	810
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
EKSPORTYO'R KORXONALARDA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI BO'YICHA QO'SHILGAN QIYMAT VA FOYDA SOLIG'INI TO'G'RI HISOBLANISHI TAHLILI VA ISTIQBOLLARI	814
Sobirova Xilola Rustam qizi	
O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI RIVOJLANISHINING MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI	819
Ikramova Taxmina Latifovna	
YANGI RIVOJLANAYOTGAN BOZORLARIDA HR QAROR QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TA'LIMNING ROLI	824
Dilfuza Shokirova	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	833
Abdiev Mutolib Anvar o'g'li	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	838
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MHXS ASOSIDA BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	842
G'anibayev Iloxomjon Shokiraliyevich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BOG'LIQLIGI	847
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, Turdimuratova Aziza Alisherovna	
AGRAR ISHLAB CHIQUARISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" KONSEPSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	851
Yusupov Muxiddin Soatovich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	



SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI

Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna

Termiz davlat Universiteti tayanch doktranti.

mamatkulovaxurshida078@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining qurilish sohasidagi ulushi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – hududda kichik biznesning qurilish sohasidagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, mavjud o'sish sur'atlarini baholash hamda trend modellari orqali prognoz qilishdir. Shu maqsadda vaqt qatori ma'lumotlari asosida chiziqli, kvadratik va eksponensial trend modellari tuzilib, ularning aniqlik darajasi taqqoslab chiqiladi. Tahlil natijalari kichik biznesning qurilish sohasidagi ulushi yildan-yilga barqaror o'sib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, trend modellari yordamida yaqin yillarda bu sohada kichik biznesning yanada kengayishi kutilayotgani aniqlangan. Tadqiqot natijalari hududda iqtisodiy siyosatni shakllantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda qurilish tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, qurilish sohasi, trend tahlili, vaqt qatori, prognozlash, iqtisodiy rivojlanish, raqobatbardoshlik, model tahlili.

Abstract. This research analyzes the share of small business and entrepreneurship in the construction sector of the Surkhandarya region based on statistical data. The main objective of the study is to identify development trends of small enterprises in the construction industry, assess growth dynamics, and forecast future tendencies using trend models. For this purpose, linear, quadratic, and exponential trend models were constructed based on time series data, and their accuracy was compared. The results indicate a stable increase in the share of small businesses in the construction sector over the years. Forecasting results show that this sector will continue to expand in the coming years. The findings have practical significance for shaping regional economic policies, supporting entrepreneurship, and enhancing the competitiveness of the construction industry.

Key words: small business, entrepreneurship, construction sector, trend analysis, forecasting, economic development.

Аннотация. В данной научной работе проводится анализ доли малого бизнеса и предпринимательства в строительной отрасли Сурхандарьинской области на основе статистических данных. Основная цель исследования – выявить тенденции развития малого бизнеса в строительной сфере, оценить темпы роста и осуществить прогнозирование с использованием трендовых моделей. Для этого на основе временных рядов построены линейная, квадратичная и экспоненциальная модели тренда, проведено сравнение их точности. Результаты анализа показывают, что доля малого бизнеса в строительной отрасли стабильно увеличивается из года в год. Прогнозирование указывает на дальнейшее расширение данной сферы в ближайшие годы. Полученные результаты имеют практическое значение для формирования региональной экономической политики, поддержки предпринимательства и повышения конкурентоспособности строительной отрасли.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, строительная отрасль, трендовый анализ, прогнозирование, экономическое развитие.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur sektor mamlakat yalpi ichki mahsulotining yarmidan ortig'ini shakllantirib, bandlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, kichik biznesning iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan qurilish sohasida tutgan o'rni ham yildan-yilga ortib bormoqda.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy hududi sifatida tabiiy resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va transport-logistika salohiyati bilan ajralib turadi. Viloyatda so'nggi yillarda qurilish sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanib, yangi uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari hamda ishlab chiqarish quvvatlari bunyod etilmoqda. Ushbu jarayonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining ulushi ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

Shunga qaramay, qurilish sohasida kichik biznesning o'sish sur'atlari va tendensiyalarini chuqur tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlar nisbatan kam. Shu sababli ushbu tadqiqotning dolzarbligi — Surxondaryo viloyatida kichik biznesning qurilish tarmog'idagi ulushini trend modellari yordamida aniqlash va o'sish tendensiyasini baholash zaruratidan kelib chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlik darajasiga ta'siri hamda tarmoqlar kesimidagi o'sish dinamikasini chuqur tahlil qilgan. Jahon tajribasi kichik biznesni iqtisodiy barqarorlik, innovatsiya va raqobatbardoshlikning muhim omili sifatida e'tirof etadi.

1. Kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni

Kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati haqida klassik iqtisodchilar — A. Marshall (1890) va J. Schumpeter (1934) o'z asarlarida tadbirkorlikni iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilgan. Zamonaviy global hisobotlarda, jumladan, OECD (2020) va World Bank (2023) ma'lumotlarida kichik biznesning rivojlanayotgan mamlakatlarda YAIMning 50–60% ini shakllantirishi ta'kidlanadi.

O'zbekistonda ham kichik biznes iqtisodiyotning yetakchi sektoriga aylangan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 56 % dan oshgan. Bu holat hududlarda, jumladan Surxondaryo viloyatida ham o'z aksini topgan.

2. Qurilish sohasida kichik biznesning rivojlanishi

Qurilish sohasi jahon miqyosida eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. McKinsey Global Institute (2022) hisobotida dunyo bo'yicha qurilish sanoati o'sish sur'ati yiliga 2,5–3% ekanligi qayd etilgan.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda qurilish sohasi faol kengayib, unda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi ortib bormoqda. Aholi sonining o'sishi, uy-joy qurilishiga bo'lgan talabning kuchayishi va davlat dasturlari bu jarayonni tezlashtirmoqda.

3. Trend modellari orqali iqtisodiy tahlil

Iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalarini o'rganishda vaqt qatori modellaridan foydalanish keng tarqalgan. Gujarati (2009) hamda Wooldridge (2015) metodologiyalariga ko'ra,

- chiziqli,
- kvadratik,
- eksponensial

trend modellari iqtisodiy jarayonlarni bashorat qilishda eng ishonchli usullar qatoriga kiradi.

Trend modellarining aniqlik darajasi yuqori ($R^2 \geq 0.9$) bo'lganda prognoz natijalari iqtisodiy siyosat ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

4. Hududiy rivojlanish va Surxondaryo tajribasi

Surxondaryo viloyati o'zining geografik joylashuvi, iqtisodiy faolligi va infratuzilma imkoniyatlari bilan kichik biznesning jadal rivojlanayotgan hududiga aylanmoqda. Viloyatda so'nggi yillarda qurilish ishlari hajmi sezilarli oshib, unda kichik korxonalar faol ishtirok etmoqda.

Bu o'sish quyidagilar bilan izohlanadi:

- aholining tabiiy o'sishi,
- uy-joy va infratuzilma qurilishiga bo'lgan talabning ortishi,
- davlat tomonidan kredit va soliq imtiyozlarining kengayishi.

Shu sababli Surxondaryo tajribasini o'rganish hududiy biznes rivojlanishini baholash uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

5. Ilmiy tahlilning bo'shliqlari

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston miqyosida kichik biznes bo'yicha umumiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, Surxondaryo viloyati misolida trend modellari yordamida chuqur statistik tahlil deyarli o'rganilmagan.



Shu jihatdan mazkur tadqiqot kichik biznesning qurilish sohasidagi ulushini trend modellarida baholash orqali ilmiy yangilik kiritadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi — Surxondaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikning qurilish sohasidagi ulushini trend modellari asosida tahlil qilish, ularning o'sish dinamikasini aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini prognozlashdan iborat.

Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlar asosida vaqt qatorlari tahlil qilindi va ular uchun mos trend modellari (chiziqli, eksponensial, logarifmik va kvadratik/parabolik modellari) tuzildi. Tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda Surxondaryo viloyati hududiy statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda statistik tahlil, mantiqiy tahlil, taqqoslash, kuzatish va modellash usullari qo'llanildi. Shuningdek, mavjud ilmiy maqolalar, iqtisodiy hisobotlar va davlat dasturlari asosida qurilish sohasidagi kichik biznes subyektlarining faoliyati o'rganildi. Trend modellari yordamida so'nggi yillardagi o'sish yoki pasayish tendensiyalari aniqlanib, iqtisodiy tahlil orqali ularning sabablari va istiqbollari izohlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatida qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining soni hamda ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu jarayon viloyatda qurilish infratuzilmasining kengayishi, investitsiya loyihalarining faollashuvi va davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan chambarchas bog'liq.

Trend tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, 2015–2024-yillar oralig'ida kichik biznesning qurilish sohasidagi ulushi barqaror o'suvchi tendensiyaga ega bo'lgan. Tahlil qilingan modellardan eng mos keladigani chiziqli trend modeli deb topildi. Ushbu model asosida 2025–2028-yillar uchun prognoz qiymatlari hisoblab chiqildi va qurilish sohasida kichik biznes ulushi kelgusida ham o'sishni davom ettirishi kutilmoqda.

Shuningdek, tahlil davomida ayrim yillarda iqtisodiy omillar, pandemiya davrida yuzaga kelgan inqirozlar, xomashyo narxlarining o'zgarishi va investitsiya oqimlaridagi pasayish kabi holatlar ulush dinamikasiga qisqa muddatli ta'sir ko'rsatgani aniqlandi.

Umuman olganda, trend modellari asosidagi natijalar kichik biznesning qurilish tarmog'idagi ulushi viloyat iqtisodiyoti rivojlanishining muhim drayverlaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi — 2015–2024-yillar davomida Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qurilish sohasidagi ulushi dinamikasini o'rganish, ularning trend modellari asosida o'sish tendensiyalarini aniqlash hamda keyingi yillarga prognoz berishdan iborat.

Trend modeli — bu iqtisodiy ko'rsatkichlarning vaqt davomida qanday o'zgarishini matematik shaklda ifodalovchi modeldir.

Trend modellarning asosiy turlari

Trend modellari — ko'rsatkichning vaqtga (t) bog'liqligini turlicha shaklda tasvirlaydi. Quyidagi modellardan foydalanish mumkin

Chiziqli trend modeli.

$$y = a + bt$$

Eksponensial trend modeli.

$$y = a * b^t$$

Logarifmik trend modeli

$$y = a + b \ln t$$

Kvadratik trend modeli.

$$y = a + bt + ct^2$$


Kubik trend modeli.

$$y = a + bt + ct^2 + dt^3$$

Model tanlash mezonlari

Har bir modelni sinab ko'rgandan so'ng, eng mosini tanlash uchun aniqlik darajasini (determinatsiya koeffitsienti, R^2) tekshiriladi:


• R^2 qiymati 1 ga yaqin bo'lsa, model ma'lumotlarga juda yaxshi mos. Agar chiziqli modelda $R^2 = 0.92$, eksponensialda esa $R^2 = 0.98$ chiqsa — eksponensial trend yaxshiroq deb olinadi.



1-rasm Ekspontsial trend modeli.

1-rasmga ko'ra eksponensial trend modeli umumiy ko'rinishi quyidagicha:


$$y = 210,94e^{0,2654t}$$



2-rasm Chiziqli trend modeli.

2-rasmga ko'ra chiziqli trend modeli umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$y = 687,95t - 2307,6$$




3-rasm Logarifmik trend modeli.



3-rasmga ko'ra logarifmik trend modeli umumiy ko'rinishi quyidagicha:


$$y = 3198.5 \ln(t) - 2753$$



4-rasm Polinomli trend modeli.

4-rasmga ko'ra polinomli trend modeli umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$y = 83.497t^3 - 648x + 1477.6$$



5-rasm Polinomli trend modeli.

5-rasmga ko'ra ko'rsatkichli trend modeli umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$y = 124.12t^{1.4264}$$

Navbatda trend modellarini varifikatsiya mezonlari bosqichi bilan baholashni ko'ramiz. Barcha trend modellari ahamiyatliligi parametrlari ishonchiligi va determinatsiya koeffitsientlari qiymatlari 1-jadvalda berilgan.



1-jadval. Regression tahlil natijalari

T/r	Tenglama	Fisher F mezon	Styudent T mezon	Determinatsiya koeffitsienti R^2
Ekspontensial	$y = 210.94e^{0.2654x}$	2520.01	$t_a = 111.3$ $t_b = 50.1$	0,9949
Chiziqli	$y = 687.95x - 2307.6$	51.25	$t_a = -2.6$ $t_b = 7.1$	0,7977
Logorifmik	$y = 3198.5 \ln(x) - 2753$	14.49	$t_a = -1.6$ $t_b = 3.8$	0.5272
2-darajali polinom	$y = 83.497x^3 - 648x + 1477.6$	199.63	$t_a = 2.6$ $t_b = 8.4$	0.9708
Darajali	$y = 124.12x^{1.4264}$	94.4	$t_a = 16.3$ $t_b = 9.7$	0.879


1-jadvalga ko'ra barcha modellar Fisher F mezon ahamiyatli ekanligini ko'rish mumkin. Biroq, logarifmik va 2-darajali polinom trend modeli parametrlaridan ba'zilar statistik ahamiyatga ega bo'lmadi. Shu bilan birga determinatsiya koeffitsientiga ko'ra eng sifatli model eksponentsial trend modeli hisoblanadi.

Shunday qilib, tadbirkorlik ishlab chiqarish hajmi bo'yicha eksponentsial trend model eng maqbul model hisoblanadi. Keyingi bosqichda model bo'yicha prognoz qiymatlar ishlab chiqildi.

2-jadval. Kichik biznes va tadbirkorlikning qurilish sohasidagi ishlab chiqarishdagi ulushi hajmining prognoz qiymatlari(mlrd so'm).

T/R	Yillar	Prognoz qiymatlar	Yillar	Prognoz qiymatlar	
1	2025	14723,98	2028	4	32640,07
2	2026	19198,49	2029	5	42559,15
3	2027	25032,78	2030	6	55492,58

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra 6-rasm ishlab chiqildi.



6-rasm. Kichik biznes va tadbirkorlikning qurilish sohasidagi ishlab chiqarish hajmining prognoz qiymatlari(mlrd so'm).



Shunday qilib, kichik biznes va tadbirkorlikning qurilish sohasidagi ishlab chiqarish hajmining 2025-2030-yillarda o'sib borishi kuzatilmoqda. 2023-yilda bu ko'rsatkich 147.34 foizga oshishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich 2030-yilga kelib, 55492,58 mlrd so'mni tashkil etadi. Bu esa 2024-yilga nisbatan 5.5 barobarni tashkil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikning qurilish sohasidagi ulushi barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanini ko'rsatdi. 2015–2024-yillar davomida tahlil qilingan statistik ma'lumotlar ushbu tarmoqda kichik biznes subyektlarining roli izchil ortib borayotganini tasdiqlaydi. Bu o'sish viloyatda qurilish infratuzilmasining kengayishi, investitsiya loyihalarining faollashuvi, uy-joy qurilishiga bo'lgan talabning oshishi hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilgan qulay shart-sharoitlar bilan bog'liq.

Trend tahlili natijalari 2015–2024-yillarda kichik biznes ulushining o'sishi chiziqli trend modeli bilan eng aniq ifodalanganini ko'rsatdi. Ushbu model asosida 2025–2028-yillarga prognoz qilingan qiymatlar qurilish tarmog'ida kichik biznes faoliyatining kelgusida ham barqaror o'sishini davom ettirishini bildiradi. Ayrim yillarda pandemiya, xomashyo narxlaridagi tebranishlar va investitsiya oqimlaridagi qisqa muddatli o'zgarishlar dinamikaga ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, ular umumiy ijobiy tendensiyani izdan chiqarmagan.

Umuman olganda, kichik biznesning qurilish sohasidagi ulushi viloyat iqtisodiyoti rivojlanishining muhim drayverlaridan biri bo'lib, bandlikni oshirish, infrastrukturaning kengayishi va mahalliy ishlab chiqarish faolayotganini rag'batlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu natijalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Qurilish sohasida kichik biznes faoliyatini samarali boshqarish uchun trend monitoringi tizimini yo'lga qo'yish va yillik statistik tahlillarni muntazam olib borish maqsadga muvofiq.
- Hududiy investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, kreditlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish kichik biznesning o'sish sur'atlarini oshiradi.
- Qurilish materiallari bozorini rivojlantirish, logistika va infratuzilma xarajatlarini kamaytirish kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi.
- Kichik qurilish korxonalarida innovatsion texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari va avtomatlashtirilgan jarayonlarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.
- Mutaxassislar tayyorlash, kadrlar malakasini oshirish va tadbirkorlar uchun o'quv dasturlarini taklif etish, qurilish sohasining mehnat bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- Qurilish bilan bog'liq hujjatlashtirish va ruxsatnoma jarayonlarida axborot-maslahat xizmatlarini kengaytirish kichik biznes faoliyatini yengillashtiradi.
- Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiyani kuchaytirish qurilish mahsulotlarining tannarxini pasaytiradi.
- Viloyat darajasida kichik biznesning qurilish sohasidagi o'rnini kengaytirish hududiy iqtisodiy faollikni oshiradi va kelgusida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni bo'yicha — Abdurazikov A. "[Role of Small Business in Uzbekistan](#)".
2. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining hududiy tahlili — Kodirov S. "[Issues of business cooperation in the national economy of Uzbekistan](#)".
3. Ilmiy metodologiyalar bo'yicha — Gujarati D.N., Porter D. "[Basic Econometrics](#)".
4. Ilmiy metodologiyalar bo'yicha — Maddala G.S. "[Introduction to Econometrics](#)".
5. Rasmiy davlat statistik sayti — <https://stat.uz/>
6. Rasmiy qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi — <https://lex.uz/docs/>
7. <https://www.worldbank.org/> — Jahon banki: O'zbekiston iqtisodiy tahlillari.
8. <https://www.oecd.org/en/topics/economy.html> — OECD iqtisodiy hisobotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>